

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar oyi uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- fevral holatiga ko'ra, viloyatda 3 703 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 666 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,0 %) Urganch shahriga, 424 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 416 tasi (11,2 %) Xonqa tumaniga, 329 tasi (8,9 %) Qo'shko'pir tumaniga va 272 tasi (7,3 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026- yilning yanvar oyida 59 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 9 tasi Shovot tumaniga, 9 tasi Urganch tumaniga, 7 tasi Bog'ot tumaniga, 6 tasi Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra





II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 941,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	1 941,3	107,5
Urganch shahri	348,4	107,5
Xiva shahri	25,9	100,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	52,3	109,4
Gurlan tumani	65,6	122,4
Qo'shko'pir tumani	97,2	116,5
Urganch tumani	131,1	112,7
Hazorasp tumani	65,3	108,1
Tuproqqal'a tumani	523,0	97,1
Xonqa tumani	108,2	109,7
Xiva tumani	50,5	108,7
Shovot tumani	98,6	103,6
Yangiariq tumani	84,5	108,2
Yangibozor tumani	62,9	110,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (8 544,0 ming so'm), Urganch shahrida (2 222,4 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (946,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Gurlan tumanida (120,3 %), Qo'shko'pir tumanida (114,5 %), Urganch tumanida (110,1 %), Yangibozor tumanida (108,7 %) va Xonqa tumanida (107,8 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1 808,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 0,2 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 112,7 mlrd so'm (5,8 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 19,8 mlrd so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar oyida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar oyida viloyatda 10 537,0 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 11,8 % ga kamaygan), 627,5 tonna o'simlik yog'i (3,1 % ga kamaygan), 3 125,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,8 martaga % ga ko'paygan) hamda 3 628 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (31,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	3 865	2 765	3 628
Maxsus yengil avtomobillar, dona	919	545	1 905
Paxta tolasi, t	10 022,9	11 950,7	10 537,0
Shakar, t	-	23 394,3	-
O'simlik yog'i, t	269,4	647,9	627,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	4 807,4	652,8	3 125,2
Paxta chigiti, t	16 200,7	19 423,5	19 881,1
Paxtadan yigirilgan ip, t	2 447,4	3 742,2	9 934,0

**2024-2025-yillarning yanvar oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 79,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,07 % ni (2025-yilning yanvar oyida 0,06 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 29,6 % (20,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,9 % (4,4 %), quyi texnologiyali 58,6 % (68,4 %) ni tashkil etgan.





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar oyida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar oyida 3 628 dona "Damas" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga oshgan), 1 905 dona maxsus yengil avtomobillari (3,5 martaga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yangil avtomobillar, donada
yanvar oyida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 73,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	95,2	115,7	84,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	95,2	115,7	84,8
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	20,5	18,1	18,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 4,2 % ga kamayganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 49,8 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 26,1 % ga oshganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	883 827,0	885 703,0	444 662,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	11 684 921,0	15 256 563,0	14 613 289,0

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	2 394 735,0	5 224 344,0	6 585 579,0
---	-------------	-------------	-------------

*2024-2025-yillarning yanvar oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 576,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab



chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

